





MEHNAT MUHOFAZASI



1-SAVOL

JAVOB

-
- *O‘zbekiston Respublikasining “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonunida mehnatni muhofaza qilish tushunchasiga qanday ta’rif berilgan?*

JAVOB

QAYTISH

- **Mehnatni muhofaza qilish** — mehnat jarayonida insonning xavfsizligini, hayoti va sog‘lig‘i, ish qobiliyati saqlanishini ta‘minlashga doir huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika, reabilitatsiya tadbirlari hamda vositalari tizimi.

2-SAVOL

JAVOB

-
- Ish beruvchi mehnat shartnomasi tuzish chog'ida dastlabki tarzda va keyinchalik (ish davomida) vaqti-vaqti bilan qaysi xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishni tashkil qilishi shart?

JAVOB

QAYTISH

-
- o‘n sakkiz yoshga to‘lmaganlar;
 - oltmish yoshga to‘lgan erkaklar, ellik besh yoshga to‘lgan ayollar;
 - nogironlar;
 - mehnat sharoiti noqulay ishlarda, tungi ishlarda, shuningdek transport harakati bilan bog‘liq ishlarda band bo‘lganlar;
 - oziq-ovqat sanoatida, savdo va bevosita aholiga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa tarmoqlardagi ishlarda band bo‘lganlar;
 - umumta‘lim maktablari, maktabgacha tarbiya va boshqa muassasalarning bevosita bolalarga ta‘lim yoki tarbiya berish bilan mashg‘ul bo‘lgan pedagog va boshqa xodimlari.

3-SAVOL

JAVOB

-
- Ish o‘rinlarining mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyasi nima naqsadda o‘tkaziladi?

JAVOB

QAYTISH

- **Ish o‘rinlarining mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyasi** mehnat sharoitlarining, ish o‘rinlaridagi mehnat jarayoni og‘irligi va tig‘izligining hamda ularning jarohatlanish jihatidan xavfliligining mehnatni muhofaza qilish masalalari bo‘yicha texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlar va normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiqligini baholash, zararli ishlab chiqarish omilini va (yoki) xavfli ishlab chiqarish omilini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

4-SAVOL

JAVOB

-
- Ish o'rinlarining mehnat sharoitlari bo'yicha attestatsiyasidan o'tkazilishi kerak bo'lgan ish o'rinlari qaysilar?

JAVOB

QAYTISH

-
- **mehnat sharoitlari bo'yicha xodimlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda imtiyozlar va kompensatsiyalar nazarda tutilgan ish o'rinlari;**
 - **nogironlar band bo'lgan ish o'rinlari;**
 - **imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlar ro'yxatlarida ko'rsatilgan ish o'rinlari;**
 - **xavfli ishlab chiqarish obyektlaridagi ish o'rinlari.**

5-SAVOL

JAVOB

-
- Mehnatni muhofaza qilishni moliyalashtirish nimalar hisobidan amalga oshiriladi?

JAVOB

QAYTISH

-
- **O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetidan ajratiladigan budget mablag‘lari;**
 - **ish beruvchining o‘z mablag‘lari;**
 - **qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzilgan mehnatni muhofaza qilish jamg‘armalarining mablag‘lari;**
 - **yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;**
 - **qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar.**

6-SAVOL

JAVOB

-
- Ish beruvchi mehnat shartnomasi tuzish chog'ida dastlabki tarzda va keyinchalik (ish davomida) vaqti-vaqti bilan qaysi xodimlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishni tashkil qilishi shart?

JAVOB

QAYTISH

-
- o‘n sakkiz yoshga to‘lmaganlar;
 - oltmish yoshga to‘lgan erkaklar, ellik besh yoshga to‘lgan ayollar;
 - nogironlar;
 - mehnat sharoiti noqulay ishlarda, tungi ishlarda, shuningdek transport harakati bilan bog‘liq ishlarda band bo‘lganlar;
 - oziq-ovqat sanoatida, savdo va bevosita aholiga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa tarmoqlardagi ishlarda band bo‘lganlar;
 - umumta‘lim maktablari, maktabgacha tarbiya va boshqa muassasalarning bevosita bolalarga ta‘lim yoki tarbiya berish bilan mashg‘ul bo‘lgan pedagog va boshqa xodimlari.

7-SAVOL

JAVOB

-
- Mehnat sharoiti noqulay ishlarda band bo'lgan xodimlar belgilangan normalar bo'yicha nimalar bilan bepul ta'minlanadi?

JAVOB

QAYTISH

-
- sut (shunga teng boshqa oziq-ovqat mahsulotlari);
 - davolash-profilaktika oziq-ovqati;
 - gazli sho‘r suv (issiq sexlarda ishlovchilar uchun);
 - maxsus kiyim-bosh, maxsus poyabzal, boshqa shaxsiy himoya va gigiyena vositalari bilan bepul ta’minlanadilar.

8-SAVOL

JAVOB

-
- Ish bilan bog‘liq holda mehnatda mayib bo‘lganligi yoki sog‘lig‘iga boshqacha tarzda shikast yetkazilganligi munosabati bilan vaqtincha kamroq haq to‘lanadigan ishga o‘tkazilgan xodimlarga ish haqi masalasi qanday tartibga solinadi?

JAVOB

QAYTISH

- Ish bilan bog‘liq holda mehnatda mayib bo‘lganligi yoki sog‘lig‘iga boshqacha tarzda shikast yetkazilganligi munosabati bilan vaqtincha kamroq haq to‘lanadigan ishga o‘tkazilgan xodimlarga ularning sog‘lig‘i shikastlanganligi uchun javobgar bo‘lgan ish beruvchi avvalgi ish haqi bilan yangi ishda oladigan ish haqi o‘rtasidagi farqni to‘laydi. Bunday farq mehnat qobiliyati tiklangunga qadar yoki nogironligi belgilangunga qadar to‘lanadi.

9-SAVOL

JAVOB

-
- **Mahalliy davlat hokimiyati organlarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari qaysilar?**

JAVOB

QAYTISH

Mahalliy davlat hokimiyati organlari:

- mehnatni muhofaza qilish sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;
- mehnatni muhofaza qilish sohasidagi hududiy dasturlarni tasdiqlaydi va amalga oshiradi;
- davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari tegishli hududiy bo‘linmalarining mehnatni muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirib boradi.

10-SAVOL

JAVOB

-
- **Nimalar ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa hisoblanadi?**

JAVOB

QAYTISH

- **ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisa** — xodimning ish beruvchining hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z mehnat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq holda, shu jumladan ish beruvchi tomonidan berilgan transportda ish joyiga kelayotgan yoki ishdan qaytayotgan vaqtda mehnatda mayib bo‘lishiga yoki sog‘lig‘ining boshqacha tarzda shikastlanishiga olib kelgan va xodimni boshqa ishga o‘tkazish zaruratiga, u kasbga oid mehnat qobiliyatini vaqtincha yoki turg‘un yo‘qotishiga yoxud vafot etishiga sabab bo‘lgan hodisa;